



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik
korxonalar




Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar 6 145,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 6,2 % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 645,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 95,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 499,5 mlrd. so'mni (6,3 % ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 539,0 mlrd. so'mni (38,2 % ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **6 145,0** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **93,8** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,5%** va yirik korxonalar hissasiga **10,5** % to'g'ri keldi.




ENG YUQORI ULUSH

Namangan viloyati bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Namangan shahri **43,9** % ulush bilan **2 696,3** mlrd. so'm ni tashkil etdi.

ENG QUIYI ULUSH

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Mingbuloq tumanida **2,3** % ulush bilan **141,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko`ra, 6 145,0 mlrd. so`m ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 3,6 % ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 89,5 % ni tashkil etdi.


Bu ko`rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kosonsoy (99,1 %), Mingbuloq (98,3 %), Yangiqo`rg`on (97,0 %), Namangan (96,5 %), Norin (94,9 %), Pop (93,7 %) va To`raqo`rg`on (93,7 %) tumanlarida yuqori bo`lgan.





2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Uychi (113,4 %) va Chust (104,3 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	6 145,0	93,8	645,5	95,2	5 499,5	93,7
Namangan.sh	2 696,3	93,8	204,4	84,9	2 491,9	94,6
tumanlar:						
Mingbuloq	141,2	94,5	2,4	5,5m	138,7	93,1
Kosonsoy	389,6	94,9	3,3	3,5m	386,3	94,3
Namangan	204,2	97,4	7,1	186,9	197,1	95,7
Norin	375,6	91,8	19,0	137,1	356,6	90,2
Pop	433,9	92,3	27,2	55,3	406,6	96,6
To'raqo'rg'on	318,7	87,0	20,2	48,2	298,5	92,0
Uychi	243,3	113,4	48,9	60,9m	194,4	91,0
Uchqo'rg'on	254,4	78,6	17,0	23,3	237,4	94,7
Chortoq	256,6	88,8	42,7	79,1	214,0	91,1
Chust	526,5	104,3	244,2	125,1	282,3	91,2
Yangiqo'rg'on	304,8	93,1	9,2	197,5	295,7	91,6

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **4,8 %** ga kamaydi va **645,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,5 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 499,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,3 %** ga kamaydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,5 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (99,1 %), Mingbuloq (98,3 %), Yangiqo`rg`on (97,0 %), Namangan (96,5 %), Norin (94,9 %) tumanlari va Namangan sh (92,4 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,5 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (46,4 %), Uychi (20,1 %) va Chortoq (16,6 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 176,9** ming so'm (2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,1%** ga kamaydi). Uychi (111,0 %), Chust (102,4 %), Namangan (95,3 %), Kosonsoy (92,8 %), Mingbuloq (92,5 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (4 283,9 ming so'm), Norin (2 291,5 ming so'm) va Chust (1 981,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	2 176,9	91,9
Namangan.sh	4 283,9	91,7
tumanlar:		
Mingbuloq	1 117,6	92,5
Kosonsoy	1 860,7	92,8
Namangan	1 138,2	95,3
Norin	2 291,5	90,1
Pop	1 973,9	90,6
To'raqo'rg'on	1 407,6	85,2
Uychi	1 141,0	111,0
Uchqo'rg'on	1 478,2	77,2
Chortoq	1 289,0	87,1
Chust	1 981,5	102,4
Yangiqo'rg'on	1 397,6	91,2



**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020- yilning yanvar-iyul oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,3 %** ni tashkil etib, **82,2 mlrd.** so‘mga yetdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **14,0 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **86,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	82,2	86,0	7,8	80,2	74,4	83,7
Namangan.sh	49,3	86,1	7,5	81,8	41,9	83,5
tumanlar:						
Mingbuloq	1,9	86,5	-	-	1,9	83,9
Kosonsoy	2,0	88,0	-	-	2,0	82,5
Namangan	4,2	87,6	0,3	87,5	3,9	82,8
Norin	2,0	87,2	-	-	2,0	83,2
Pop	4,7	88,5	-	-	4,7	82,0
To‘raqo‘rg‘on	2,9	88,6	-	-	2,9	81,9
Uychi	1,5	89,6	0,1	151,1	1,5	82,2
Uchqo‘rg‘on	3,0	85,9	-	-	3,0	84,4
Chortoq	2,5	89,3	-	-	2,5	81,2
Chust	7,0	80,1	-	-	7,0	88,2
Yangiqo‘rg‘on	1,1	84,3	-	-	1,1	86,1

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar




Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2 008,4** mlrd. so'm ni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,8 %** ga kypaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **472,3** mlrd. so'mni (**33,3 %** ga kamaydi), mikrofirmalar va kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 536,2** mlrd. so'mni (**21,5 %** ga ko'paydi).


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Norin (4 904,5 m.), Uychi (1 040,3 m.), Namangan (210,3 %), tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Chust (4,0 m), Uchqo'rg'on (3,5 m), Uychi (2,3 m), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- iyul oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	2 008,4	101,8	472,3	66,7	1 536,2	121,5
Namangan.sh	745,5	86,0	144,3	37,7	601,1	124,2
tumanlar:						
Mingbuloq	24,2	119,8	0,3	159,9	23,9	119,4
Kosonsoy	224,7	120,8	0,2	121,3	224,5	120,8
Namangan	83,3	119,4	0,9	210,3	82,4	118,9
Norin	114,8	147,1	22,2	4 904,5m	92,7	118,8
Pop	98,1	120,3	0,4	116,1	97,7	120,3
To'raqo'rg'on	153,2	41,3	54,3	18,9	98,9	119,3
Uychi	79,0	2,3m	38,5	1 040,3m	40,5	118,9
Uchqo'rg'on	59,4	3,5m	39,0	203,9m	20,4	121,5
Chortoq	114,6	119,4	14,4	117,3	100,2	119,7
Chust	184,4	4,0m	157,8	6,6m	26,6	120,0
Yangiqo'rg'on	127,3	119,7	0,0	-	-	119,7

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-iyul oylari yakuniga ko'ra, **1 536,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **21,5** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **76,5** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on (100,0 %), Kosonsoy (99,9 %), Pop (99,6 %), Namangan t, (99,0 %) va Mingbuloq,(98,8 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (14,4 %) tumaniga to'g'ri keldi.



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi**
Tel : (69)-226-84-95